

SANOAT KORXONALARIDAGI XAVFLI VA ZARARLI OMILLAR TASNIFI

Karimov Bahodir O'ktam o'g'li

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Ekologiya va mehnatni muhofaza qilish" kafedrası stajyo'r o'qituvchisi,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti,
180100. Mustaqillik ko'chasi-225, Qarshi, O'zbekiston.
Elektron pochta: bkarimov1996@mail.com

ANNOTATSIYA

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlari vaqtida yuzaga keladigan xavfli va zararli omillarni ishning turi va mehnat sharoitiga bog'liq holda 4 guruhga bo'lish tavsiya etiladi: fizikaviy, kimyoviy, biologik va psixofiziologik. Xavflilik darajasi mezoni etib ish zonasi havosi tarkibida zararli moddalar miqdorining ruxsat etilgan miqdori (PDK), o'rtacha o'lim dozasi, ruxsat etilgan daraja yoki chegaralar, ruxsat etilgan qoldiq miqdor kabi ko'rsatkichlar belgilanadi.

Kalit so'zlar: xavfli omillar, zararli omillar, fizikaviy, kimyoviy, biologik, psixofiziologik omillar, xavflilik darajasi, ruxsat etilgan miqdor, identifikasiya.

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha islohotlarning pirovard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini yaratishdan iboratdir. Albatta, hozirgi vaqtda har qanday jamiyatda munosib hayot sharoitini yaratish ilmiy-texnik taraqqiyot asosida amalga oshiriladi va bu inson mehnatini engillashtirish bilan bir qatorda, turli xil xavfli omillarni vujudga keltiradiki, natijada har xil ko'rinishdagi baxtsiz hodisalar: jarohatlanishlar, shikastlanishlar va kasb kasalliklari vujudga keladi. Lekin, bu muqaddas zaminda yashayotgan har bir inson yaxshi yashashni, ya'ni, o'zining moddiy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarini to'liqroq qondirishni istaydi. Aynan shu sababli inson tinimsiz faoliyatda bo'ladi. Shuning uchun Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlari vaqtida yuzaga keladigan xavfli va zararli omillarni ishning turi va mehnat sharoitiga bog'liq holda o'rganish va chora tadbirlar re'jasini amalga oshirish zarur.

Asosiy qism. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini xamda mazkur korxonada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfli va zararli omillarni atroflicha tahlil qilish, xavfli va zararli omillar tasnifini ishlab chiqish, hamda

korxonada mehnatni muxofaza qilish jarayonini tizimli boshqarishni takomillashtirishning zaruriyati va ahamiyatini asoslash;[1]

Inson har qanday muhit sharoitida faoliyat yuritmasin inson va muhit o'rtasida o'zaro qarama-qarshi ta'sir yuzaga keladi. Shu sababli inson faoliyati ikki maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi:

1. O'z faoliyati davomida ma'lum samarali maqsadga, manfaatga erishish.

2. Faoliyati davrida yuzaga keladigan ko'ngilsiz holatlarni bartaraf etish, ya'ni faoliyatni xavfsiz va zararsiz bo'lishini ta'minlash [2].

Ko'ngilsiz holatlar deganda insonning hayoti va sog'liga zarar yetishi tushuniladi. Inson faoliyati davomida uning hayoti va sog'ligiga zarar yetkazuvchi har qanday holat, vaziyat, vositalar xavflar deyiladi. Xavflar ta'sirida inson sog'ligiga zarar yetadi, hayoti xavf ostida qoladi va organizmning me'yoriy faoliyati qiynlashadi.

Davlat va jamiyatning eng muhim vazifalaridan biri fuqarolarning sog'lom va xavfsiz mehnat qilish huquqlarini ta'minlash hisoblanadi. Taraqqiy etgan ko'pgina davlatlarning tajribasi mehnatni muhofaza qilish madaniyatini rivojlantirish xodimlar uchun ham, ish beruvchilar va davlat uchun ham manfaatli ekanligidan dalolat beradi. Mehnat muhofazasi qoidalariga rioya etmaslik mehnat unumdorligi va ishlab chiqarilayotgan tovarlar sifatini pasaytiradi.

O'zbekiston Respublikasida mehnatni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining eng asosiy prinsipi – milliy qonunchilikda kafolatlab qo'yilganidek, xodimlarning ishlab chiqarish faoliyatida hayoti va salomatligini muhofaza qilishning ustuvorligidir.

Ishlab chiqarish omillari ish vaqtida ta'sir etish natijasida jarohat yoki shikastlanishga olib kelsa xavfli omillar, ishchining sog'ligi va yomonlashuviga olib kelsa zararli omillar deb ataladi.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlari vaqtida yuzaga keladigan xavfli va zararli omillar ishning turi va mehnat sharoitiga bog'liq holda 4 guruhga bo'lish tavsiya etiladi: fizikaviy, kimyoviy, biologik va psixofiziologik [3]:

Fizikaviy omillarga harakatdagi mashina va mexanizmlar, ularning himoyalangan qo'zg'aluvchi mexanizmlari, ish joyi havosining yuqori darajada changlanganligi, gazlanganligi, yuqori miqdordagi shovqin, titrash, infratovush, ultratovush, turli xil nurlanishlar, statik elektr zaryadlari, yuqori kuchlanishdagi elektr yoki magnit maydonlari, yoritilganlik darajasining me'yordan chetga chiqishi kabi omillar kiradi.

Kimyoviy omillarga ishlab chiqarish jarayonlarida ishlatiladigan yoki ajralib chiqadigan turli xil kimyoviy moddalar kiradi. Ularni insonga ta'sir etish xususiyatiga qarab quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: umumiy zaharlovchi, ko'payish funksiyalariga ta'sir etuvchi; inson a'zolariga kirish yo'li orqali esa: nafas olish yo'li

orqali ta'sir etuvchi, ovqatlanish va hazm qilish tizimi orqali va bevosita teri orqali ta'sir etuvchi.

Kimyoviy moddalar inson organizmiga ta'sir etish va xavflilik darajasiga qarab 4 sinfga bo'linadi:

- ✓ favqulodda xavfli moddalar (simob);
- ✓ yuqori xavfli moddalar (xlor, ishqor);
- ✓ sekin ta'sir etuvchi moddalar (azot dioksid);
- ✓ kam xavfli (aseton, benzin, metan, butan).

Biologik omillarga esa har xil jarohatlar va kasalliklarni keltirib chiqaruvchi mikro va makroorganizmlar: bakteriyalar, viruslar, rikket, zamburug'lar, har xil zaharli o'simliklar va hayvonlar kiradi.

Psixofiziologik omillarga jismoniy va asabiy zo'riqishlar misol bo'la oladi. Jismoniy zo'riqishlar statik, dinamik va gipodinamik holda bo'lishi mumkin. Asabiy zo'riqish esa kuchli aqliy mehnatdan, mehnatni doimiy bir xil ko'rinishda bo'lishidan, kuchli hayajonlanish yoki asabiylashishdan sodir bo'ladi.

Xavflilik darajasi mezoni etib ish zonasi havosi tarkibida zararli moddalar miqdorining ruxsat etilgan miqdori (PDK), o'rtacha o'lim do'zasi, ruxsat etilgan daraja yoki, ruxsat etilgan qoldiq miqdor kabi ko'rsatkichlar belgilanadi [4]. Ish zonasi havosi tarkibidagi ruxsat etilgan miqdor (PDK-REM) deb – ishchi butun ish staji davomida har kunlik ish smenasida ishlaganda ham uning sog'ligiga salbiy ta'sir etmaydigan zararli moddalar miqdori tushuniladi [5].

Ishlab chiqarishdagi ko'pgina holatlarda ushbu omillar umumlashgan holda uchraydi. Ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalarni oldini olish zararli va xavfli omillarning ta'sir darajasini susaytirish maqsadida texnologik jarayonlarni to'liq mexanizasiyalashtirish, avtomatlashtirish va ish joylarini germetiklashtirish, ishlab chiqarish xonalarida yoritilganlik, shovqin, titrash miqdorlarini hamda mikroiklim ko'rsatkichlarini me'yorlashtirish, ishchilarni maxsus kiyim boshlar va shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlashni o'z vaqtida amalga oshirish talab etiladi [6].

Sanoat korxonalaridagi texnologik jarayonlar amalga oshishi natijasida yuzaga keladigan xavfli omillar turlari, ularni baholash shakli, mezonlari hamda yuzaga kelish manbalarini aniqlash uchun xavfli va zararli omillar identifikatsiyasini yartish talab etiladi. Xavf potensial, ya'ni yashirin xarakterga ega. Shu sababli, hayot faoliyat xavfsizligini ta'minlashda xavfni oldindan aniqlash muhim ro'l o'ynaydi.

Identifikatsiya – xavfni va uning soni hamda vaqtli ko'rsatkichlarini aniqlash jarayoni bo'lib, uning natijasida hayot faoliyat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan profilaktik va operativ tadbirlar ishlab chiqiladi [7]. Identifikatsiya jarayonida xavfning nomenklaturasi, xavfni yuzaga kelish ehtimoli, fazoviy koordinatalari («lokalizatsiya»),

xavf tufayli kutiladigan zarar va boshqa parametrlar aniqlanadi. Olingan natijalar asosida esa aniq tadbirlar ishlab chiqiladi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash mumkinki, xavfsizlikni tizimli boshqarish nazariyasiga ko‘ra sanoat korxonalarini butun bir tizim deb hisoblanadi, “Sanoat xavfsizligi, mehnat muhofazasi va atrof muhit muhofazasi” bo‘limi ushbu tizimning elementi sifatida qaraladi. Shu sababli, zavodning mazkur bo‘limi faoliyatini emas, balki boshqaruv faoliyatidagi barcha qismlarini inobatga olib, qaror qabul qilish tavsiya etiladi. Bu jarayonda zavodning ichki va tashqi muxit omillariga bo‘lgan ta’sirini, unga bog‘liq tizimlarni ham inobatga olish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasining Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonuni. 2016 yil 22 sentyabr, O‘RQ-410-son.
2. Raximov O.D., Yuldos‘hev O‘.R., Murodov M.O. Mehnatni muhofaza qilish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Aloqachi” nashriyoti, 2018.
3. Safety, culture and risk : the organisational causes of disasters by Andrew Hopkins. Call Number: 363.1 HOP ISBN: 1921022256 2005
4. UZBEKISTAN GTL” zavodidagi texnologik jarayonlar tavsifi. // “UZBEKISTAN GTL” , Sanoat xavfsizligi, mehnat muhofazasi va atrof-muhit muhofazasi bo‘limi, 2023y.
5. Yuldos‘hev O‘., Raximov O.D. va b. Mehnatni muhofaza qilish. Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2012y
6. Workplace safety [yelectronic resource] : a guide for small and midsized companies by Hopwood, Dan. ISBN: 9780782136043 Publication Date: 2006
7. Xavfli Va Zararli Omillar Identifikatsiyalash Tartibi Dgu 2023 1825.
8. Raximov O.D. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. Pedagoglar uchun uslubiy qo‘llanma. // Qars‘hi, TATU Q/f, 2011y